


# AYOLLAR BANDLIGINI TA’MINLASH ORQALI GENDER TENGLIGINI TA’MINLASH ISTIQBOLLARI

**Janabayeva Gulbahor Ashirovna**
Oriental universiteti Moliya va menejment kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
gulbakhorjanabaeva@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23792270

***Annotatsiya*** *Ushbu maqolada ayollar bandligini ta’minlash orqali gender tengligini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional asoslari tahlil qilinadi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, qonunchilik bazasi, xalqaro huquqiy majburiyatlar, jumladan BMTning 5-Maqsadi va CEDAW Konvensiyasiga asoslangan yondashuvlar asosida gender siyosatining ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Ayollarni mehnat bozoriga jalb etish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish, yuqori daromadli va texnik sohalardagi ishtirokini kengaytirish orqali gender tengligini ta’minlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar*** *Gender tengligi, ayollar bandligi, iqtisodiy faollik, ijtimoiy tenglik, CEDAW, BMT 5-maqsad, mehnat bozori, ayollar tadbirkorligi.*

## 1.Kirish

Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan davrda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga erishishda gender tengligini ta’minlash muhim strategik omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, ayollarni mehnat bozoriga jalb qilish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish orqali nafaqat oilaviy daromadlar, balki jamiyatdagi umumiy farovonlik darajasi ham ortadi. O‘zbekiston Respublikasida ham keyingi yillarda ayollar bandligini oshirish, ularni kasb-hunar va tadbirkorlik sohalariga keng jalb etish bo‘yicha izchil va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta’minlash, ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar kompleks va tizimli xususiyatga ega bo‘lib, ayollar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish hamda oila institutini mustahkamlashni o‘z ichiga oladi.

Mazkur sa’y-harakatlar xalqaro majburiyatlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishlarni tugatish to‘g‘risidagi Konvensiyasi" (CEDAW) va boshqa xalqaro-huquqiy normalarga asoslanadi. Ushbu yondashuv orqali ayollarning mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ishtirokini kengaytirish hamda ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash ko‘zda tutilmoqda.

CEDAW Konvensiyasining amalga oshirilish holati yuzasidan taqdim etilgan O‘zbekiston Respublikasining Beshinchi davriy hisobotini ko‘rib chiqqan BMTning maxsus qo‘mitasi tomonidan bir qator tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadida, gender tengligini ta’minlash va ayollarni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadli chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan Milliy Harakatlar Rejasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Ushbu hujjat O‘zbekistonda ayollar manfaatlarini

ilgari surishda milliy va xalqaro darajadagi yondashuvlar uyg‘unligini ifodalaydi hamda mamlakatning barqaror ijtimoiy taraqqiyotida ayollar o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.rivojlantirish bo‘yicha aniq strategik chora-tadbirlarni belgilab beradi.

Gender tengligi, avvalo, erkak va ayolning biotibbiy yoki ijtimoiy farqlariga emas, balki ularning konstitutsiyaviy va qonuniy huquqlardan teng asosda foydalanish imkoniyatiga qaratilgan konsepsiyadir. Bu nuqtai nazardan, insonlar o‘rtasidagi tenglik ularning jinsi, ijtimoiy mavqei, irqiy, milliy yoki diniy mansubligidan qat’i nazar, huquqiy imkoniyatlar tengligiga asoslanmog‘i lozim.

Gender tengligi - bu erkaklar va ayollar (shuningdek, boshqa jinsiy identifikatsiyalarga ega insonlar) uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan tamoyil va ijtimoiy siyosatdir. Gender tengligi insonning jinsi tufayli kamsitilmasligiga, barcha sohalarda – ta'lim, sog‘liqni saqlash, mehnat, siyosat, iqtisodiyot va boshqa jabhalarda teng sharoitlar yaratishga asoslanadi[1].

BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti):

Gender tengligi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biridir (SDG Goal 5). Bu maqsad ayollar va qizlarning huquqlarini kengaytirish va barcha jinslar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan[2].

Gender tengligi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolati to‘g‘risida”gi qonunda e’tirof etilgan.[3]

## 2. Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, ayollar bandligini oshirish orqali gender tengligini ta’minlashda muvaffaqiyatga erishish nafaqat ijtimoiy tashabbuslar, balki rivojlangan institutsional va iqtisodiy infratuzilmaning mavjudligi bilan ham chambarchas bog‘liq. Bu jarayonni qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosatining faolligi, ayollar uchun mos ish o‘rinlarini yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va zamonaviy texnologiyalar asosida mehnatga jalb etish mexanizmlarining samarali ishlashi muhim o‘rin tutadi. Ayollar ishtirokini kengaytirishga qaratilgan strategik yondashuvlar nafaqat tashqi muhit omillari, balki korxona va tashkilotlarning ichki boshqaruv tizimlarida ham ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari ichida 5-Maqsad – “Gender tengligini ta’minlash va barcha ayollar hamda qizlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan kuchaytirish” – global ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotning ajralmas elementi sifatida belgilanadi. Mazkur maqsad ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda teng ishtirokini ta’minlash, zo‘ravonlikning barcha shakllariga barham berish, shuningdek, zararli ijtimoiy amaliyotlar (erta va majburiy nikohlar, jinsiy ekspluatatsiya)ni tugatishga qaratilgan kompleks yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ayollarning iqtisodiy resurslarga teng kirishini ta’minlash, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va reproduktiv salomatlik huquqlarini himoya qilish gender tenglik siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etiladi[4].

Shu bilan birga, 5-Maqsadning ijrosi nafaqat ijtimoiy sohada, balki iqtisodiy taraqqiyotning sifatli va inklyuziv bo‘lishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, ayollarning uy mehnati va parvarish faoliyati mehnat sifatida tan olinishi, ijtimoiy himoya

---

[1] https://www.un.org/en/global-issues/gender-equality

[2] BMT rasmiy sayti: https://sdgs.un.org/goals/goal5
CEDAW (Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi konvensiya): https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/

[3] https://lex.uz/ru/docs/1696426
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (29- va 46-moddalar): https://lex.uz/docs/35869

[4] https://sdgs.un.org/goals/goal5

siyosatlari orqali kompensatsiya qilinishi gender mehnat taqsimotini tenglashtiradi. Siyosiy va rahbarlik darajalarida ayollarning samarali ishtiroki esa qaror qabul qilish tizimida inkluzivlikni kuchaytiradi. Shu sababli, gender tengligiga erishish faqat ijtimoiy tenglik emas, balki innovatsion va barqaror iqtisodiy rivojlanishning ham strategik kaliti sifatida qaralishi lozim.

Bu borada o zbek olimlari ham o‘z fikirlari ilgari surishgan. Yunusova (2021) gender tengligiga erishishda ayollar bandligini oshirish muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. U mehnat bozorida ayollarning faol ishtirokiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar sifatida kasbiy stereotiplar, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish va rasmiy sektor ish o‘rinlariga yo‘lning murakkabligini ko‘rsatadi. Hamda, davlat siyosati orqali ayollar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish va ularni iqtisodiy faollikka keng jalb etish gender tengligini amaliy shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Masalan, Nishonova F.B. (2020) fikriga ko‘ra ayollar bandligining ortishi ijtimoiy tenglikka zamin yaratadi, bu esa o‘z navbatida gender siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshishiga turtki bo‘ladi. U, shuningdek, ayollarni tadbirkorlikda qo‘llab-quvvatlashni milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida baholaydi.

Bundan tashqari, boshqa olimning fikri ham talqin qilingan Kabeer N. (2005**)** gender tengligini faqat formal huquqiy tenglik emas, balki ayollarning amaliy imkoniyatlardan foydalanish darajasi bilan ham belgilanishi lozimligini ta’kidlaydi. U iqtisodiy resurslarga kirish, mehnat va moliyaviy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lmasa, gender tengligi real hayotda amalga oshmaydi deb hisoblaydi. Shu bois bu yondashuvi gender tenglikni chuqur ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida tahlil qiladi.

Shu bilan birga, Duflo E. (2012) o‘zining fikirlarida ayollarning iqtisodiy faolligi va mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni asoslab beradi. U gender tengligini mustahkamlash orqali kambag‘allikni kamaytirish, farovonlikni oshirish va institutsional islohotlarni jadallashtirish mumkinligini isbotlaydi. Ikkinchi yondashuviga ko‘ra ayollar bandligini oshirishni ijtimoiy tenglik va iqtisodiy o‘sishning asosiy dvigateli sifatida ko‘rsatadi.

“Women, Business and the Law” nomli yillik hisobotida ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga to‘sqinlik qiluvchi institutsional va huquqiy cheklovlarni tizimli ravishda tahlil qiladi. Xususan, World Bank (2023) o‘zining ayollarning mol-mulk huquqlari, moliyaviy xizmatlardan foydalanish, mehnat bozori va yetakchilikdagi ishtirokini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar ilgari suriladi. Bu yondashuv gender tengligini qonunchilik va siyosiy qarorlar darajasida mustahkamlash zaruratini asoslaydi.

Shunday qilib, ayollarning to‘laqonli iqtisodiy ishtiroki - bu faqat ijtimoiy tenglikni ta’minlash vositasi emas, balki barqaror iqtisodiy o‘sish va inklyuziv rivojlanishning strategik omili sifatida e’tirof etiladi. Ayollar uchun teng iqtisodiy imkoniyatlar yaratish orqali nafaqat milliy mehnat resurslaridan samarali foydalanish, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion salohiyatni safarbar etish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa zamonaviy global taraqqiyotning muhim talablaridan biridir.

## 3. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiya ayollar bandligini ta’minlash orqali gender tengligini ta’minlash istiqbollarini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu boradagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning mantiqiy asoslarini aniqlashda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot davomida tahlil va sintez, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tanqidiy baholash hamda ilmiy umumlashtirish kabi klassik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, gender tengligini ta’minlashda ayollarni mehnat bozoriga jalb etishning iqtisodiy

samaradorligi, institutsional muhitdagi imkoniyatlar va mavjud cheklovlar tizimli tarzda o‘rganildi.


## 4. Tahlil va natijalar

Zamonaviy global iqtisodiy taraqqiyot sharoitida xususiy sektor va tadbirkorlik instituti ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda strategik omil sifatida maydonga chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ko‘plab davlatlar uchun gender tengligini ta’minlash va ijtimoiy siyosatni takomillashtirishda muhim mexanizm bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ijobiy natijalar beradi:

- Ayollarning mehnat bozorida faol ishtirokini ta’minlab, bandlik sohasida gender tengligiga erishishga xizmat qiladi;
- Moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlaydi;
- Mehnat unumdorligini oshiradi va yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, gender tengligining asosiy tarkibiy yo‘nalishlari – iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy-himoya va insoniy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Bu yondashuv gender tengligini tor doiradagi tushuncha emas, balki kompleks ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Har bir yo‘nalish – masalan, ayollarning mehnat bozoridagi faolligi (iqtisodiy), siyosiy qarorlar qabul qilishda teng ishtiroki (siyosiy), ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish (ijtimoiy-madaniy), ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilish mexanizmlari (huquqiy-himoya), shuningdek, inson huquqlariga hurmat (insoniy) – gender tenglikni ta’minlovchi asosiy ustunlardan biri hisoblanadi.





**1 - rasm Gender tengligining tarkibiy komponentlar tasnifi[5]**

Bundan tashqari, har bir omil o‘z navbatida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqlarini himoya qilish va jamiyatda teng ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. Tahliliy yondashuvda ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, siyosiy qarorlar qabul qilishda teng ishtirokini ta’minlash, madaniy stereotiplarni yengish

[5] Tadqiqotchi ishlanmasi.

va huquqiy himoya mexanizmlarini mustahkamlash gender tengligiga erishishning strategik yo‘nalishlari sifatida qaraladi. Shu jihatdan, gender tengligi – bu faqat ijtimoiy adolat tamoyili emas, balki barqaror rivojlanish va demokratik jamiyat qurishning muhim negizidir.

O‘zbekistonda ayollar va erkaklar bandlik darajasi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud bo‘lib, bu mehnat bozorida gender tengligiga erishish yo‘lida muhim masala hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida ayollar bandlik darajasi asta-sekin oshib bormoqda, biroq hali ham erkaklarga nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil holatiga ayollar bandligi 45–47% atrofida bo‘lsa, erkaklar orasida bu ko‘rsatkich 67–70% ni tashkil etgan. Ayollar asosan ta’lim, sog‘liqni saqlash, xizmat ko‘rsatish va savdo sohalarida faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, erkaklar qurilish, sanoat va transport tarmoqlarida ustunlik qiladi. Gender tengligiga erishish uchun ayollarni texnik va yuqori daromadli sohalarga jalb etish, mehnat sharoitlarini moslashtirish va imkoniyatlarni kengaytirish zarurati mavjud.




**2 - rasm 2015–2023 yillar davomida O‘zbekistonda ayollar va erkaklar bandlik darajasi o‘rtasidagi o‘zgarishlar dinamikasi[6]**

Ta’qdim etilgan 2- rasmda O‘zbekistonda 2015–2023 yillar oralig‘ida ayollar va erkaklar bandlik darajasi o‘rtasidagi dinamikani ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu davr mobaynida erkaklar bandlik darajasi asta-sekin pasaygan (2015 yildagi 75% dan 2023 yilda 71% ga), ayollar bandligi esa izchil o‘sib borgan (45% dan 60% ga). Bu holat mehnat bozorida gender muvozanatining yaxshilanayotganini, ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati va ijtimoiy dasturlarning samarasini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu jarayon O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash yo‘lida muhim ijobiy siljishlar mavjudligini va ayollar mehnatga jalb etilishida institutsional va ijtimoiy to‘siqlar asta-sekin yengilayotganidan darak beradi.


Gender iqtisodiyoti - iqtisodiy resurslar, imkoniyatlar va natijalarning erkaklar va ayollar o‘rtasida qanday taqsimlanganini o‘rganadigan iqtisodiyot sohasi bo‘lib, bu yondashuv genderga asoslangan tengsizliklarning sabab va oqibatlarini aniqlashga

[6] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2 ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

qaratilgan. Bu yo‘nalish nafaqat ayollarni, balki erkaklarni ham qamrab olgan holda, mehnat bozori, ish haqi tafovuti, bandlik, ta’limga kirish, sog‘liqni saqlash va moliyaviy xizmatlarga teng imkoniyatlar masalalarini tahlil qiladi. Gender iqtisodiyoti iqtisodiy siyosat va qarorlar gender jihatdan neytral emasligini ko‘rsatadi va ijtimoiy adolat hamda inkluziv rivojlanishga hissa qo‘shadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarni mehnat bozoriga to‘liq jalb etish va ularga teng huquqlar berish orqali yalpi ichki mahsulotni (YaIM) sezilarli darajada oshirish mumkin. Masalan, IMF va McKinsey tahlillariga ko‘ra, gender tengligini ta’minlagan davlatlarda iqtisodiy o‘sish barqarorroq bo‘ladi, ishlab chiqarish samaradorligi yuqori, innovatsiya va ijodkorlik salohiyati kengroq bo‘ladi. Gender iqtisodiyoti shuningdek, "ayollarning ko‘rinmas mehnati" (masalan, to‘lanmaydigan parvarish ishlarining iqtisodiy qiymati)ni hisobga olib, rasmiy statistikada aks etmayotgan iqtisodiy faoliyatni ko‘rsatishga yordam beradi.

Ayollar ishsizligi gender iqtisodiyotining eng muhim va dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, bu holat ko‘pincha strukturaviy to‘siqlar, ijtimoiy stereotiplar va mehnat bozoridagi tengsizliklar bilan bog‘liq. Statistika shuni ko‘rsatadiki, ayollar nafaqat erkaklarga qaraganda ko‘proq ishsizlik xavfiga duch keladi, balki ular uchun mavjud ish o‘rinlari ko‘pincha norasmiy, past haq to‘lanadigan yoki ijtimoiy himoyasiz bo‘ladi. Ayniqsa, onalik mas’uliyati, bolaga qarash majburiyati va moslashuvchan ish sharoitlarining yetishmasligi ayollarni mehnat bozoridan chetlashishiga sabab bo‘ladi. Bu esa nafaqat ularning iqtisodiy mustaqilligini, balki butun jamiyatning ishlab chiqarish salohiyatini pasaytiradi.



**3 – rasm O‘zbekistonda 2024-yil holatiga ko‘ra ayollar bandligining iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi nisbatlari (foizda)[7]**

Shu bilan birga 2024-yilga oid taqdim etilgan diagrammada O‘zbekistonda ayollar bandligining sohalar bo‘yicha taqsimotini aks ettirib, mehnat bozoridagi gender tafovutlarini tahlil qilish imkonini beradi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, ayollar eng ko‘p ta’lim (38%) va sog‘liqni saqlash (26%) sohalarida band bo‘lib, bu sohalar an’anaviy tarzda “ayollar sohasi” sifatida shakllangan. Savdo (15%) va qishloq xo‘jaligi (10%) sohalarida ham ayollarning faol ishtiroki mavjud. Biroq davlat xizmatlari (7%) va ayniqsa sanoat (4%) sohalarida ayollar bandligi past bo‘lib, bu sohalarda gender tengligiga erishish uchun hali qo‘shimcha imkoniyatlar va rag‘batlantiruvchi siyosatlar zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, bu taqsimot ayollar mehnati asosan ijtimoiy xizmat sohalariga yo‘naltirilganini va iqtisodiyotning texnik tarmoqlarida gender disbalansi saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.

## 5. Xulosa

Yuqoridagi tahlilardan kelib chiqib xulosa va erishilgan natijalarni jam qilar ekanmiz:

Ayollar bandligini ta’minlash orqali gender tengligini qaror toptirish – zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, nafaqat adolatli jamiyat qurilishi, balki barqaror iqtisodiy taraqqiyot, demografik barqarorlik va ijtimoiy inklyuzivlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayollarni mehnat bozoriga jalb etish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, milliy harakatlar rejasi va xalqaro konvensiyalar, xususan, CEDAW asosida olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlar gender tengligi tamoyillarini amalda joriy etishga xizmat qilmoqda.

Hamda, ayollar bandligini oshirish orqali gender tengligiga erishish – bu jamiyatning barqarorligi, mehnat bozorining raqobatbardoshligi va taraqqiyotning inklyuziv xarakterini ta’minlovchi zaruriy yo‘nalishdir. Bu boradagi siyosiy iroda, huquqiy asoslar va xalqaro hamkorlik gender tengligining mustahkamlanishida muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunday ekan, gender tengligi – bu kelajak taraqqiyotining ajralmas va zaruriy sharti sifatida strategik yondashuvni talab etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Таджибаева, Д.Х. Гендерная политика и участие женщин в cосиально-экономических процессах Узбекистана / - Ташкент: Fan, 2018. - 215 с.
2. Юнусова, Н.Н. Повышение занятости женщин в Узбекистане: проблемы и перспективы / Н.Н. Юнусова // Экономика и образование. - 2021. - №1. - С. 58–64.
3. Нишонова, Ф.Б. Рол женщин в малом бизнесе: cосиологический аспект / Ф.Б. Нишонова // Общество и управление. - 2020. - №2. - С. 32–36.
4. Саттарова, М.М. Гендерное равенство и расширение экономических возможностей женщин в условиях устойчивого развития / М.М. Саттарова. - Ташкент: Ижтимоий фикр, 2019. - 189 с.
5. Sen, A. Development as Freedom / A. Sen. - Oxford: Oxford University Press, 1999. – 384 p.
6. Kabeer, N. Gender Equality and Women’s Empowerment: A Critical Analysis of the Third Millennium Development Goal / N. Kabeer // Gender and Development. - 2005. - Vol. 13, No. 1. - P. 13–24.
7. Duflo, E. Women Empowerment and Economic Development / E. Duflo // Journal of Economic Literature. - 2012. - Vol. 50, No. 4. - P. 1051–1079.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2 ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

8. World Bank. Women, Business and the Law 2023: A Decade of Reform. - Washington, DC: World Bank, 2023. - 132 p.

9. Женщины и мужчины Узбекистана: статистический сборник. - Ташкент: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике, 2011. - 224 с.

10. (См.: Табл. 4.6. Структура занятых по отраслям экономики и полу, стр. 159).

11. О равных правах и возможностях женщин и мужчин: Закон Республики Узбекистан от 2 сентября 2019 г. № ЗРУ–561 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. - URL: https://lex.uz/docs/4494873 (дата обращения: 28.05.2025).

12. Постановление Президента Республики Узбекистан от 7 марта 2022 г. № ПП–146 «О мерах по обеспечению гендерного равенства и расширению прав и возможностей женщин» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. – URL: https://lex.uz/docs/5942622 (дата обращения: 28.05.2025).

13. Стратегия достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года. – Ташкент: Комитет по делам семьи и женщин, 2021. – URL: https://gender.stat.uz (дата обращения: 28.05.2025).